

NAVOIYNING SAYYID HASAN ARDASHERGA YOZGAN MASNAVIY MAKTUBI
TAHLILI
ANALYSIS OF NAVAI'S MASNAVI LETTER TO SEYID HASAN ARDASHER

Ergasheva Dilshoda Abdusalomovna

Samarqand davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti

E-mail: dilshodaabdusalomovna@gmail.com

Tel: (+998) 93 991-91-40

Annotatsiya. Ushbu maqolada Navoiyning Sayyid Hasan Ardasheriga yozgan maktubi tahlil etiladi. Maktub avtobiografik xususiyatga ega bo'lgani bois Navoiy shaxsiyati "Masnaviy" da yana ham yorqin o'z ifodasini topgan. Maqoladan shoirning Samarqandga kelishi bilan bog'liq uch sabab, asar kompozitsiyasi, mazmuniy tahlili o'rin olgan.

Kalit so'zlar: masnaviy, maktub, hasbi hol, faxriya, bayt, mutaqorib, majzubi solik, soliki majzub, jazba, "G'aroyib us-sig'ar".

Annotation. This article analyzes Navoi's letter to Sayyid Hasan Ardasher. Since the letter has autobiographical features, Navoi's personality is expressed even more vividly in the Masnaviy. The article covers three reasons related to the poet's arrival in Samarkand, the composition of the work, and its content analysis.

Keywords: Masnaviy, letter, hasbi hol, fakhriya, verse, mutaqorib, majzubi solik, soliki majzub, jazba, G'aroyib us-sig'ar.

Аннотация: В статье анализируется письмо Навои к Сайиду Хасану Ардашеру. Поскольку письмо имеет автобиографические черты, личность Навои ярче всего проявляется в Маснави. В статье рассматриваются три причины, связанные с приездом поэта в Самарканд, композиция произведения и его содержательный анализ.

Ключевые слова: Маснавия, письмо, hasbi hol, fakhriya, стих, mutaqorib, majzubi solik, soliki majzub, jazba, G'aroyib us-sig'ar.

Navoiyning hasbu hol mazmunda yozilgan she'riy maktubi o'zbek adabiyotshunosligida "Masnaviy" deya atalib, "Xazoyin ul-maoniy" to'plamining uchinchi devoni bo'lmish "G'aroyib us-sig'ar" to'plamiga kiritilgan. Asar "G'aroyib us-sig'ar" ga "Masnaviy" nomi bilan kiritilgan. Biroq "Masnaviy" aslida noma janriga mansub bo'lganidan "Navoiyning Sayyid Hasan Ardasheriga yozgan maktubi" deb ham ataladi. Ushbu asar adabiyotshunosligimiz tarixi nuqtayi nazaridan Navoiyning Samarqandga kelish voqealarini tahlil eishda, o'sha davrning ijtimoiy-siyosiy ahvoliga baho berishda g'oyat qimmatlidir. Bu asar ko'plab adabiyotshunos olimlarimizning diqqat markazida bo'lgan. Jumladan, **Suyima G'aniyevaning "Navoiy", Olim Sharafiddinovning "Navoiy", Vohid Abdullayevning "Navoiy Samarqandda"** nomli kitoblarida ushbu asarning o'rganilganligi fikrimiz isbotidir.

"Masnaviy" tadqiqot ob'yektimiz o'laroq bu asarga atroflicha to'xtalish galdagi vazifamizdir. Navoiyning nazmda yozilgan bu asarida 24-25 yoshli shoirning o'z ko'ngil rozlari, hasbi holi tasvir etilgani bois ko'proq rasmiy va hajman kichik bo'lgan maktublardan iborat "Munshaot" asari tarkibiga kiritilmagan. Navoiy uni "Munshaot" ning tarkibiga kiritish haqida o'ylab ham ko'rmagan, nazarimda. Chunki "Munshaot" dan davlat ahamiyatiga molik yozishmalar o'rin olgan.

“Masnaviy”da esa Navoiyning hasbi holi atroflicha qalamga olinadi. Shu bois uni bir tomondan hasbi hol san’atining yetuk namunasi desak, ikkinchi tomondan she’riy maktubning ideal tasviri deb aytishimiz mumkin bo’ladi.

“Masnaviy”ning, avvalo, shakliy jihatiga e’tibor qaratadigan bo’lsak, asar 147 bayt (294 misra)dan iborat. Asarga aruzning mutaqorib bahri tanlangan. Ramal bahri sho’x va o’ynoqi ohangi bilan turkiy adabiyotda o’ziga xos o’ringa ega. Biroq mutaqorib bahri nafaqat jang tasviri, shohlar haqidagi dostonlarni hikoya etishga mo’ljallangan bahr, balki iztirob hamda didaktik ruh ohangiga ham mos vazn turidir. Asarning to’liq vazni mutaqoribi musammani mahzuf (V--/V--/V--/V-), ya’ni fauvlun, fauvlun, fauvlun, faul. Shakli esa masnaviy - ikkilikda yozilgan.

Asar hamd (10 bayt), na’t, Sayyid Hasan Ardasher ta’rifi bilan boshlanadi. Muhaqqiq zakosi ila tahlil qilsak, Navoiy asarning hamd qismidanoq hasbi holga zimdan tayyorgarlik ko’radi.

Sano haqqakim, koshifi hol erur,

Xirad mushkilotig’a halol erur.

Barcha holatlarni ochib beruvchi, aql mushkullarini hal etuvchi U donoga hamdlar bo’lsin. U shunday zot:

Alimeki, yo’qtur bidoyat anga,

Azimeki, yo’qtur bidoyat anga.

Alim - Alloh ismlaridan bo’lib, “o’ta bilguvchi” ma’nosini bildiradi. U shunday bilimdonki, boshlanishi yo’q, U shunday ulug’ki, oxiri ham yo’q.

Hazar ichra bechoralar yovari,

Safar ichra ovoralar rahbari.

Hazar - xatar ichra bechoralarga yordamchi, safardagi ovora kishilarning yo’lboshchisi degan mazmunni ifodalaydi. **Bu bilan** Navoiy Samarqand safarida talaygina zahmatlar ko’rganiga, safarda unga Ugina suyanch bo’lganiga bir ishora edi.

Ne solikkakim, dasht etib jilvagoh,

Tavakkulni aylab anga zodi roh.

Qaysi solik sahroni o’ziga manzil qilsa, unga tavakkulni yo’l oziqi qilib beradi. **Bundan anglashiladiki**, Navoiy ham Samarqandga kelishi oldidan unga tayin qilingan issiq boshpana, ilmiy muhit, shart-sharoit tayin qilinmagan bo’lsa-da, tavakkul bilan yo’lga chiqqan.

Hamdning quyidagi ikki baytida shoir deydi:

Biravnikim aylab bir el ichra xor,

Anga chora aylab ul eldin firor.

Safarni tamug’din nishon aylabon,

Tamug’ ranjin andin ayon aylabon.

Baytlar ma’nosi shunday: birovni bir el ichida xor qilsa, U zot o’sha eldan qochish choralarini yaratadi. Safarni go’yo jahannam (tamug’)ga o’xshatib, uning azobini ham oshkor qiladi. **Bu ikki baytda** garchand hamd bitilgan bo’lsa-da, Navoiy allaqachon Samarqandga kelgani, safar azobini totgani sabab **uning ichki kechinmalari hamd tarannumi bilan birlashib ketgan.**

Ko’ngulsizga mushfiq, kishisizga yor,

Umidi yo’q el andin ummidvor.

Navoiy hamdning oxirgi baytida ko’ngli yo’qqa mehribon, kishisi yo’qqa do’st, umidsizlarga ham U umid beruvchidir deya yaratganga umid bog’laydi.

Tarixchilar Mirxond, Abdurazzoq Samarqandiy hamda Xondamirlar **o'z tafsilotlarida** Navoiyning Samarqandga borishini ilm olmoq sababi bilan bog'lashadi. Biroq Zahiriddin Bobur "Bilmon, ne jarima bila Sulton Abu Said Mirzo Hiridin **ixroj qildi**" deydi. Ozod Sharafiddinov o'z qarashlarini quyidagicha bayon etadi: "Podshoh Abusaid o'lkani, elni talab, "vahshatobod"ga aylantirgan, xalqning tirikchiligi og'irlashgan edi... Yosh shoir Abusaid Mirzoning qo'li bilan qilinib turilgan zulm, adolatsizlikni o'z ko'zi bilan ko'rdi va kundan-kunga chuqurroq his eta boshladi. Bu esa Alisherning Abusaid Mirzoga nafratini oshirdi". Darhaqiqat, ustoz O.Sharafiddinov talqiniga ko'ra yosh shoirda nafratning oshganini maktub misralarida aynan shaxsga nisbatan ifoda etilganini ko'rmasak-da, muhit nuqtayi nazaridan yetarlicha mufassal bayon etilganlikning guvohi bo'lamiz.

Masalan,

Ki, bo'lmoq vatan ichra dushvor edi,

Ko'ngulga jalo daf'i ozor edi.

Navoiy vatan ichra turmoqning o'zi dushvor deyishligida **asos bor edi**. Abusaid Mirzo taxtga chiqqach Husany Boyqaroning yaqinlari, jumladan, Alisherning tog'alari Kobuliy va G'aribiylar qatl etilgan edi.

Safar tushti olling'a beixtiyor,

Qazo amrida elga ne ixtiyor?!

Navoiy, balki Bobur mirzoning aytganicha "ixroj" etilgandir, lekin o'sha paytda yosh shoir uchun eng to'g'ri yo'l ham shu edi.

Navoiy hamd, na'tdan so'ng ma'naviy ustoz Sayyid Hasan Ardasher tavsifini 12 baytda mufassal bayon etgan. Jumladan,

Jamol ichra tong boshi noxiddek,

Kamol ichra tush vaqti xurshiddek.

Vafo anga pasha, saxo anga fan,

Vafovu saxo koni Sayyid Hasan

Zihe ravzadin hulqing ortiq base,

Kelib bog'i qadringda tubo xase.

Chu sensen bugun olam ahlida fard,

Ki, holin de olg'ay sanga ahli dard.

Navoiy "Masnaviy"ning 25-baytida "Mangakim vidoding'a

xursandmen,

Kanobingg'a shogird-u farzandmen" deya Hasan Ardasherining tavsifini tugatib, **26-baytdan hasbu holini bayon etishga kirishadi:**

G'ame yetti charxi jafopeshadin,

Hamul anjumi xorij andeshadin.

Navoiy maktubda Samarqand safariga sabab bo'lgan uchta asosni keltiradi. **Birinchi sabab** qilib shoir ijod masalasini ko'rsatadi. Inson va hayvon bir-biridan so'z orqali farqlidir deb, **so'zni "falakning joni"** deya ta'riflaydi va bunga misol qilib Masih mo'jizasini eslatadi. Navoiy ta'biricha so'z - tirik narsa, obihayvondir. Buni esa bugungi zamonaviy psixologiya ham tan oladi. So'z haqida mushohada yuritar ekan, Navoiy "Vale nazm silki aro xushdurur" deydi. Shu o'rinda maktubda faxriya ifoda etilgan misralarga ham duch kelamiz:

Men ul menki, to turk bedodidur,

Bu til birla to nazm bunyodidur.

Navoiy bu davrda turkiy adabiyotga ayni qoni qaynagan, ijodga zalvorli qadamlar bilan kirib kelayotgan edi. Yosh bo'lishiga qaramasdan o'z quvvatiga, shoirlilik mahoratiga to'g'ri baho bera oladi:

Yetar tengridin oncha quvvat manga,
Ki, bo'lmas bitiriga fursat manga...
Ki, har necha nutq o'lsa kohilsaroy,
Bitigaymen, o'ttuz yilin o'ttuz oy.

Ikkinchi sabab qilib esa Hirotdagi notinch muhitni ko'rsatadi. Zero shoirga shoirlilik uchun tinch, osoyishta makon kerak.

Yana bir bukim, zohir o'lmish mango,
Ki, chiqmish Xuroson elidin vafo...

Bu uch fe'l chiqqach arodin tamom,
Yana bo'lmish uch fe'l qoyimmaqom.
Vafo yerida zohir o'lmish nifoq,
Saho o'rnida buxl tutmish visoq.

Navoiy ta'biricha Xurosonda **vafo** o'rnini **nifoq**, **saho** o'rnini **buxl** (baxillik), **muruvvat** o'rnini **hasad** egallab olgan. Uch yomon fe'l uch yaxshi xislat bilan qarama-qarshi qo'yilgan. Lekin muruvvat bilan hasad aynan antonimlikni hosil qilolmaydi. Bu misralardan anglashiladiki, Xurosonda ijod ahliga, ayniqsa Boyqaroning Navoiydek yaqin do'stiga muruvvat nurlari to'silgan. Uning o'rnini hasad egallamoqda. Nega aynan hasad? Bu hasad aslida Navoiydan ko'ra ko'proq taxtdan vaqtincha quruq qolgan Husayn Boyqaroga qilingan hasad desak mubolag'a bo'lmas. Chunki Husaynning Navoiydek vafoli, bolalik chog'laridan birga o'sgan maslakdosh va oqil do'sti bor. Behisht yo'qolib o'rnini tamug' (do'zax) egallagan bu yurt "vahshatobod"ga aylangan. "Masjidlarda ibodat nuri yo'qolgan, xonaqohlarda non berish odati ham qolmagan" deya shoir zorlanadi. Xullas, "Xalq uylari qush katagidek buzilgan, madrasalarda ilm va to'g'rilik yo'q, go'yo butxonadan islom dini qidirilgandek. Munojot qiluvchilarda ham qalb jamligi yo'qolgan. Bularni na xalq, na odam deyish mumkin, go'yo shayton va devlar kabi. Barchaning ishi zulm va hiyla bo'lib qoldi. Qora pul uchun qotillikni odat qilganlar, o'likdan ham kafan olishni ko'zlaydi. Hirotning bunday "havodis yeli" "day (kuchli bo'ron) yelidek" Samaarqand eli tomon esdi". Shoir **bu tasvir orqali** Hirotdagi hodisalar shamoli, izg'irinli bo'roni uni Hirotdan Samarqandga eltganiga ishora qiladi.

Shoir Samarqandga keldi, biroq "Manga bu el ichra ne bir hamdame" yo'qligidan **zorlanadi**. "Bir dam ikovlan deyishsak g'ame" deya **sog'inchini ifoda etadi**. Navoiy bir homiyga, muruvvatparvar shaxsga ehtiyojini **ochiq-oshkor** ifoda etadi:

Ne shohiki topsa ishim ihtilol,
Madihiga ko'rguzamen ishtig'ol. Umidvor shoir fikrini davom ettirib,
Ne bir ahli davlatdin oncha umid
Ki, andin navo topsa bir noumid, deydi.

Ushbu baytdagi "navo" so'zi bugungi kunda "navo" deyilganda faqat "kuy, musiqa" ma'nosida tushuniladigan "navo" emas. Besh jilddan iborat "O'zbek tilining izohli lug'ati"da "navo" so'zining beshta ma'nosi berilgan. P.Shamsiyev va S.Ibrohimovning "Navoiy asarlari lug'ati"da ham ushbu so'zning **beshta ma'nosi izohlanadi**: 1) ovoz, muzika, sado; 2) kuy, ohang; 3) kuy nomi; 4) boylik; 5) nasib, bahra. Lug'atda berilgan ushbu besh ma'nodan oxirgi "bahra, nasib" ma'nolari bayt mazmuni bilan hamohanglik hosil qiladi desak, to'g'ri bo'ladi. Eron adabiyotiga mansub "Fors tili

lug‘atnomasi”da “navo” so‘zining Navoiy ifoda etmoqchi bo‘lgan mazmunning aynan o‘zginasini ko‘rishimiz mumkin, ushbu ma‘no shunday izohlanadi: “navo” - “tirikchilik, kun ko‘rish vositasi” (“vasoyili zindagi”).

Fikrimizga dalil sifatida keyingi baytni keltiramiz:

Ne vajhi maoshe muqarrar manga

Ki, bo‘lg‘ay farog‘e muyassar manga.

Maosh tirikchilik vositasidir. Yosh shoir tavakkul bilan safarga chiqdi, biroq qiyinchiliklarga duchor bo‘lmoqda. Shu sabab ehtiyojini yaqin kishisiga ochiq-oshkor ifoda etmoqda.

“Masnaviy”dagi keyingiz bayt yana ham ta‘sirli. Boisi shuki, yigitlik qoni, shijoati toshib turgan bo‘lg‘usi mutafakkir nafaqat moddiy-ma‘naviy qiyinchilikdan zorlanyapti, balki kimsasizlik ranjidan ham ezilyapti. Zero ota-onasi vafot etgan, ma‘rifatli tog‘alari qatl etilgan bo‘ydoq Alisherning ko‘nglini ko‘taruvchi bir dildori ham yo‘q:

Ne yoreki, ranjimni qilgay qabul,

Ne zoreki, hajrimdin o‘lg‘ay malul.

Baytda “**yoreki**” hamsuhbat, do‘st ma‘nolarini ifoda etsa, bayt mazmunini kuchaytirgan “**zoreki**” ifodasi Navoiygagina tegishli bo‘ladigan **yorni** ifodalaydi.

Navoiy yana real shaxsga - maktubdagi adresantga murojaat qiladi:

Sen erdingki, har ishda yordim eding,

Ne g‘amkim, yetar, g‘amgusorim eding.

Samarqand safarining ikkinchi sababini yakunlab, muallif “Zaruratki yasab, safar bargini, Tushub yo‘lg‘a qilg‘ay vatan tarkini” deydi.

Uchinchi sababini esa shunday izohlaydi:

Uchunch ulki, chun xoliqi zuljalol

Ki, ham lamyaza l keldi, ham loyazol.

Zuljalol (ذو الجلال), Lamyazal (لم يزل), Loyazol (لا يزال) - ushbu arabiy so‘zlar quyidagi ma‘nolarni ifodalaydi: Zuljalol - ulug‘lik egasi, buyuklik sohibi, jalol (ulug‘ azamat) egasi; Lamyazal - azaldan bor, doimo bo‘lgan, hech qachon yo‘q bo‘lmagan; Loyazol - to‘xtamasdan davom etuvchi, doim barqaror. Navoiy shu qisqa ikki misra orqali azaldan mavjud va doim barqaror buyuk jalol egasi olamni yaratish ishiga tushdi deya Allohning olamlarni yaratganiga ishora qiladi.

Demay yetti obou to‘rt ummahot,

Ki, xilqat to‘ni kiydi chu koinot.

Ya‘ni Alloh yetti osmon va to‘rt unurni yaratdi, butun borliq yaratilish libosini kiydi. Keyingi baytda avtor qarashi yana ham ayonlashadi:

Baridin g‘araz garchi inson edi,

Anga dag‘i maqsud irfon edi.

Yani insonning yaratilishidan maqsad - **irfon!**

Bu so‘z sidqig‘a dag‘i bata‘n-u tanz,

Dalolat qilur oyati “kuntu kanz”.

“Kuntu kanzan maxfiyyan fa ahabtu an u‘rafa fa xalaqtul-xalq”, ya‘ni (Men yashirin xazina edim, tanilishni xohladim va maxluqotni yaratdim, toki Meni tanisinlar) mazmunidagi tasavvufiy qarashga ishora qiladi.

Ushbu so‘fiyona qarashni o‘zida tajassum etgan “kanz falsafasi” bugungi kunda ham keng qamrovli tushuncha sanaladi. Hatto “**kanz**” - “**xazina**” nomi bilan bog‘liq klassik va zamonaviy falsafa,

so‘fiylik va din masalalariga bag‘ishlangan “Kanz falsafasi” jurnali tashkil etilgan bo‘lib, u Philosophia Sadra Islom Kolleji (STFI)ning ilmiy jurnalidir.

Navoiy uchinchi sababni tasavvufiy qarashlar bilan bog‘lab, “**majzubi solik**” va “**soliki majzub**” ifodalarini izohlaydi. Unga ko‘ra “majzubi solik” holatidagi kishi haqdan bir jazba yetishi natijasida haqiqat yo‘liga qadam qo‘yadi. Navoiy “soliki majzub”ni ham ta‘riflab shunday deydi:

Burun murshidi komil istab yurub,

Ani topqach o‘zin anga topshurub.

Fano dashtida sayri bo‘lg‘ach tamom,

Haq andin so‘ng etkay ato ul maqom.

Inson tabiatidagi Allohga ruhiy yaqinlashishga bo‘lgan ehtiyoj eng chuqur chanqoqlikdir. Navoiy keltirgan uchinchi sababda ham shu ehtiyoj yorqin aks etgan.

Xulosa qilsak, Navoiy qayerga bormasin, ijod ahliga, miskinlarga yordam qo‘lini cho‘zuvchi saxiy shaxs bo‘lgan. Xususan, Vohid abdullayev “Navoiy Samarqandda” nomli tadqiqotida Samarqandning XV asr ikkinchi yarmi adabiyot va madaniyati rivojida Alisher Navoiyning beqiyos hissasi borligini ta‘kidlagan edi. Olimning: “Bu davr Samarqand adabiy muhitini Alisher Navoiysiz, u tayyorlagan yosh qalamkashlarsiz tasavvur qilish mumkin emas”, - degan fikrlari mutlaqo haqiqatdir.

Ushbu maktubdan o‘sha davrning ijtimoiy-siyosiy ahvolini, zamona muhitini anglar ekanmiz, Ibrohim Haqqulning “Alisher Navoiy va Sulton Abusaid” nomli maqolasidagi bir haqiqatni ta‘kidlab o‘tish joizdir: “baytlarda ifodalangan axloqiy tanazzul va nafsoniy yirtqichlik birdaniga paydo bo‘lmagan. Shuning uchun ijtimoiy hayot, iqtisod, zulm zaminida yuzaga kelgan kulfat va baxtsizliklarning hammasini Abusaidga nisbat berish to‘g‘ri emas. Chunki ular Abusaidgacha ham bo‘lgan, uning o‘limidan keyin ham yo‘qolib ketmagan”. Darhaqiqat, Navoiyning Samarqand safari chog‘ida moddiy va ma‘naviy tortgan qiyinchiligi uni komil shaxs bo‘lib yetishishida hayoti maktab vazifasini o‘tadi desak mubolag‘a bo‘lmas. Maktubni tahlil qilar ekanmiz, garchi zamona notinch ersa-da, Navoiy, asosan, Samarqandga ilm istab keldi hamda niyatiga yetdi. Ma‘naviy ustoz bo‘lmish Sayyid Hasan Ardasher Navoiyning ilmga bo‘lgan tashnaligini maktubda ko‘rib, yosh Alisherga ko‘mak kerakligini samarqandlik faqihlarga tushuntirgan bo‘lsa ajab emas. Chunki keyinchalik Samarqand hokimi Ahmad Hojibek, olim Fazlulloh Abullayslar shoirga muruvvat ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Navoiy A., “G‘aroyib us-sig‘ar”, T.: 525-540
2. Haqqul I. Navoiy va Abu Said. O‘zbek tili va adabiyoti jurnali. T. : Kamalak, 2015-yil, 15-bet.
3. Rahmonova N., “Alisher Navoiyning masnaviysi - turkiy nomaning betakror namunasi” nomli maqola.
4. Sharafiddinov O. A.Navoiy (hayoti va ijodi) T.: G‘.G‘ulom, 1971-yil, 33-34 bet.
5. Vohidov R, Eshonqulov H., O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi. O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti, 2006-yil, 210-bet.
6. Academic Research in Educational Sciences Journal. 997-bet. www.ares.uz